

## ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA ANIMATSION VIDEO QO'LLANMANING O'RNI

**Mo'minov Saidasror Nabijon o'g'li**

Andijon Mashinasozlik instituti

E-mail: [msaidasror@mail.ru](mailto:msaidasror@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda animatsion video darsliklarni ta'lif sohasida tutgan o'rni va ahamiyati hamda ularni yaratilish jarayonida kerak bo'ladigan bilim va ko'nikmalarga alohida e'tibor berildi. Ta'lif oluvchilarning bevosita animatsion darsliklar yaratish fanidan o'quv uslubiy majmuasi va unformatsion modelini ishlab chiqish hamda ularga ushbu fanni o'rganishlari uchun kerakli ma'lumotlarni yaratish hamda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish. Bu borada animatsion darsliklar yaratishni zamonaviy o'qitish texnologiyalari asosida samarali tashkil qilish yo'llari tavsiya qilindi.

**Kalit so'zlar:** Animatsiya, metodika, kashfiyat, slaydlar, axborot, texnologiyalr, ta'lif, ilm-fan.

## THE ROLE OF THE ANIMATIONAL VIDEO MANUALS IN THE MODERN EDUCATIONAL SYSTEM

**Mo'minov Saidasror Nabijon o'g'li**

Andijan Machine-buiding institute

E-mail: [msaidasror@mail.ru](mailto:msaidasror@mail.ru)

### ABSTRACT

In this article, special attention was paid to the role and importance of animated video textbooks in the field of education, as well as to the knowledge and skills needed in the process of their creation. Creation of educational methodical complex and necessary information and elimination of the problems arising directly from the science of creation of animated textbooks. In this regard, modern teaching technologies for creating animated textbooks to develop an informational model and for them to learn this subject ways of effective organization were recommended.

**Keywords:** Animation, methodology, discovery, slides, information, technology, education, science.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari kirib bormagan biror bir sohani ko'rsatib o'tish juda mushkul. Ayni vaqtida ilm-fan, texnika taraqqiyotini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayni paytda ushbu texnologiyalarning ta'lim va ta'limning turli yo'nalishlariga, tibbiyot, bioinformatika va boshqa sohalarga kirib kelishi sezilarli yutuqlarni vujudga keltirdi. Bu esa o'z-o'zidan ham ma'naviy, ham moddiy yutuqlarga asos bo'ladi.

"Axborot asri" - har daqiqada o'sib borayotgan va rivojlanish cho'qqisiga chiqayotgan davr silsilasidir. Bir qarashda jo'ndek ko'ringan bu soha har bir faoliyatning qoniga, uning yuragiga aylanmoqda. Negaki axborotsiz inson bir daqiqa ham yashashi mumkin emas. Uning tug'ulishi ham bir axborotni vujudga keltiradi, yani u yashash mobaynida turli darajali axborotga duch keladi. Ko'zlarimizni ko'rishi, ranglarni ajratishi inson miyasidagi behisob jaroyonlar axborotni mavjudligidan dalolatdir. Darhaqiqat insoniyat turmush tarzining rivojlanishi yangi-yangi kashfiyotlarning yaratilishiga sabab bo'lmoqda. Inson yangilik yaratish jarayonida har xil to'siqlarga duch keladi va shu to'siqlarni yengib o'tish mobaynida yana yangi ixtiolar vujudga kelaveradi. Lekin hayot tajribalaridan ma'lumki, ko'pincha yangi kashfiyot ma'lum bir muammoni hal qilish jarayonida yuzaga keladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shular ayon bo'ldiki animatsion video qo'llanmalar darsda foydalanish pedagogga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Animatsion video qo'llanmalarni o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin.

Elektron darsliklarni loyihalashtirish ishlab chiqish va o'quv jarayonida keng foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda, chunki ulardan ommaviy ravishda ta'lim sohasida qo'llanila boshlandi. Oxirgi vaqtarda elektron nashrlarni turli xillari yaratilib, ular o'z tarkibiga masofaviy o'qitishning kompleks tizimigacha qamrab olmoqda.

Ushbu sohaning yangiligi va o'quv-uslubiy ta'minotning yo'qligi ishlab chiqilayottan elektron darsliklarning sifat darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, darsliklarni yaratishning yagona standartlari majud emasligi va dasturiy vositalarining turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilishi elektron

darsliklarni o‘quv jarayonida samarali qo‘llashga to‘sqinlik qilyapti deyish mumkin.

Animatsion video qo‘llanmalarni yaratish texnologiyasi ham aynan axborot texnologiyalarining ajralmas bir bo‘lagi hisoblanadi. Shu munosabat bilan animatsion video qo‘llanma yaratish texnologiyasini ma’lum bir modelini va o‘quv uslubiy majmuasini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylangan. Bevosita izlanish mohiyatidan kelib chiqib, talabalarning mustaqil ta’lim olish samaradorligini oshirish uslublarini izlab topishga qaratildi. Mazkur muammoni hal etisda animatsion video qo‘llanmalarini ishlab chiqish va uni amaliyatda qo‘lash asosiy vasifa hisoblanadi.

Slaydlarga nisbatan o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini yozadi va bu orqali ular axborotlar bilan ishlashning quyidagi malakalariga ega bo‘ladilar:

- grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki teskarisi;
- muhokama etilayotgan mavzu bo‘yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- o‘zining o‘quv-bilish faoliyatini rejalshtirish.

Bunday metodika o‘qituvchiga yangi axborotlarni ko‘paytirib borish, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi o‘zgarishi bilan ma’lum bir mavzuga mo‘ljallangan darsliklarni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi.

## REFERENCES:

1. "3D kompyuter grafikasi". ScienceDaily. Olingan 2021-04-19.
2. "Kompyuter grafikasi va animatsiyasining tarixiy xronologiyasi".
3. "Kompyuter grafikasi".